TILSHUNOSLIK

UDK: 81:81.45;81.161;81.2 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a64**

TERMINLAR TARJIMASINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕРЕВОДА ТЕРМИНОВ

THE ORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF TRANSLATION OF TERMS

To‘rayeva Umida Shuxratovna[1]

[1]To‘rayeva Umida Shuxratovna[1] – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Tarjimaviy muammolarni hal qilish tarjimondan puxta filologik bilim va tegishli nazariy tayyorgarlikni talab qiladi. Tarjima jarayonida kerakli so‘zni tanlash, zarur so‘zni boshqa ma’nodagi so‘zlar sirasidan ajratib olish katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada yuridik terminlarni tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlari va tarjima muammolari tahlillar asosida yoritilgan. Maqolada tavsifiy, tasnifiy (klassifikatsion), qiyosiy-tipologik (chog‘ishtirma) metodlar, tarjima usullari tahlilidan foydalanilgan.

Аннотация

Решение переводческих задач требует от переводчика основательных филологических знаний и соответствующей теоретической подготовки. В процессе перевода очень важно правильно подобрать слово, отличить нужное слово от слов с другими значениями. В данной статье на основе анализа выделены особенности перевода юридических терминов и переводческие проблемы. В статье используются описательный, классификационный, сравнительно-типологический (гибридный) методы, анализ методов перевода.

Abstract

Solving translation problems requires thorough philological knowledge and appropriate theoretical training from the translator. In the process of translation, it is very important to choose the right word, to distinguish the right word from words with other meanings. In this article, the specific features of the translation of legal terms and translation problems are highlighted based on the analysis. The article uses descriptive, classification (classification), comparative-typological (hybrid) methods, analysis of translation methods.

Kalit so‘zlar: *huquqiytarjima, leksik vositalar, terminologiktizim, jinoyathuquqi, kalkalash usuli, unifikatsiya.*

Ключевые слова: *юридический перевод, лексические средства, терминосистема, уголовное право, способ копирования, унификация.*

Key words: *legal translation, lexical tools, terminological system, criminal law, method of copying, unification.*

KIRISH

Dunyo tilshunosligida so‘ngi vaqtlarda yuridik terminlarning lingvistik, sotsiolingvistik, qiyosiy, leksikografik yondashuvlar asosidagi tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘lami ortib borayotgani e’tiborga molik. Yuridik terminlarni tasniflash va tavsiflash, ularni turli tizimli tillar kesimida lingvistik tahlil qilish, terminlarning tarjima qilish usullarini, metod va metodologiyalarini aniqlash hamda ishlab chiqish dunyo tilshunoslari oldida turgan muhim masalalardan biridir.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi yuridik terminlar tanlab olindi. Ushbu tadqiqot ishining nazariy xulosalari va tahlil usullari, statistik materiallaridan terminologiyaga oid tadqiqotlar obyekti sifatida foydalanishga, yuridik terminologiyaga xos xususiyatlarni tadqiq etishdagi ahamiyatini yoritishda, turli xil tadqiqot usullaridan foydalanishda, tadqiq manbalarini aniqlashda foydalaniladi. Ushbu maqolada keltirilgan fikr-mulohazalar sohalar terminologiyasi, xususan yuridik terminologiya va tarjima nazariyasining xususiyatlarini yoritishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Asliyatga mansub bo‘lgan, til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda (matn) tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga kelgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Shu yo‘l bilan asliyat va tarjima tillari matnning mazmuniy-uslubiy adekvatligi yuzaga keltiriladi. Mazkur ta’rif tillararo amalga oshiriladigan jarayonga aloqador bo‘lib, insoniyat faoliyatining ko‘proq qismi mazkur amaliyot bilan bog‘liqdir [1]. Shu tufayli “tarjima” deganda aksariyat kishilar ko‘z oldiga, birinchi navbatda, bir tildagi matnni ikkinchi tilga o‘girish faoliyati namoyon bo‘ladi.

Q.Musayev bu borada quyidagicha ta’rif keltirib o‘tadi: “Tarjima xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir”, – deya ta’kidlagan edi [2]. Shu vaqtga qadar faqat arab, fors adabiyotidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan boshqa tillarga tarjima qilingan bo‘lsa, endi bular bilan bir qatorda, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish ishlari rivojlandi [3]. Bundan tashqari, o‘zbek tilida yozilgan bir qancha she’riy asarlarni rus tiliga o‘girish ishlari ham boshlandi.

XIX asrgacha bo‘lgan tarjimalarning umumiy xususiyatlaridan biri shuki, tarjimonlarning ko‘pchiligi shoir va adiblar bo‘lib, ular badiiy, tarixiy-falsafiy asarlarni ham tarjima qilganlar. Shuni ham qayd qilib o‘tish kerakki, original tarixiy asarlar mualliflarining o‘zlari ham ko‘pincha shoir yoki adib bo‘lganlar. Tarjimonlar hozirgiday maxsus soha yoki ayrim janrlar bo‘yicha mutaxasislashmaganlar. Hikoyani tarjima qilgan adib tarixiy va falsafiy kitoblarni ham tarjima qilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Huquqiy va ma’muriy tizimlar aholining harakatchanligi va sonining oshib borishi bilan parallel ravishda rivojlanib borar ekan, tug‘ilish, o‘lim va nikohni qayd etish uchun fuqarolik daftarlarining yaratilishi hayotimizning barcha sohalarida ma’muriy nazoratning boshlanishini ko‘rsatdi. Shu tariqa, rasmiy muassasalardan chiqadigan hujjatlarni tarjima qilish zarurati ortdi. Masalan, 2013-yilda Yevropa Ittifoqi fuqarolari uchun 2 milliondan ortiq sahifani yiliga 1 milliard yevroga yaqin xarajat evaziga 24 ta rasmiy tilga tarjima qilgan Yevropa Komissiyasining bosh direktorati (the European Commission Directorate-General of Translation) faoliyati yuqoridagi fikrimizga yorqin dalildir [4].

Yuridik tarjimaning ishlashi tarjimonlardan yuridik terminlar va ularning jarayonlari haqida mukammal bilimga ega bo‘lishni, umuman olganda yuridik harakatlar, rasmiy hujjatlar va turli mamlakatlardagi huquq tizimlari va huquqlar ishining o‘ziga xos xususiyatlarini bilishni talab qiladi. Yuridik tarjimonning ishi ijodiy emas, texnik operatsiyadir, chunki yuridik matnlar quruq matnlar bo‘lib, ularda yo‘l va terminlar tasvirlangan.

Yuridik tarjima — bu nafaqat qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalar, balki sud hujjatlari va ma’muriy, tijorat va moliyaviy matnlarni tarjima qilish uchun berilgan belgi. Qonun odamlar hayotining deyarli barcha qismiga ta’sir qilganligi sababli, huquqiy hujjatlar universal xususiyatga ega bo‘lib, deyarli har qanday sohani o‘z ichiga olishi mumkin [5]. Masalan, atrof-muhit masalalari bo‘yicha shartnomalardan tortib, sud ishidagi sevgi maktubi yoki o‘z joniga qasd qilish yozuvigacha.

Transkripsiyalash. Terminologik tizimlarni solishtirganda, agar ikki tilda jinoyat huquqi tushunchalarining ko‘lami mos kelmasa, ya’ni tizimlardan birida o‘xshash tushuncha bo‘lmasa, bo‘shliqni to‘ldirish uchun transkripsiyadan foydalanish tavsiya etiladi [6]. *Recidivist- retsidivist; impeachment – impichment; penitentiary – penitariya markazi* (*jazoni ijro etish muassasasi); suicide – suitsid (o‘z joniga qasd qilish); criminalist – kriminalist; jury – juri va boshqalar.*

Transliteratsiyalash tabiiy til muammolaridagi doirada keng tarqalgan va qadimgilardan biri bo‘lsa-da, u hozirda ham muhim ahamiyatga egaligicha qolmoqda. Haqiqatdan ham bu usuldan foydalanish hozirgi vaqtda ko‘plab chegaralar bilan bog‘liq (til siyosati, stilistik normalar, turli xil sotsialingvistik, jamoatlarning, urf – odatlari va boshqalar).

Kalkalash. Xususan, kalkalashda leksik birliklar qurilish materiali sifatida ishlatilib, o‘zlashtirilgan ichki shaklni yoki tarjima qilinayotgan so‘zni tiklaydi: *cybercrime – kiberjinoyatchilik, cyber security –kiberhavhfsizlik, Gezella mirror – Gezel oynasi, Supreme Court – Oliy sud.*

Kalkalash usulining ustunligi shundaki, bu orqali biz ekvivalentning aniq va osonlikcha aniqlanishi va uning boshlang‘ich (ma’nosi) so‘zga bir ma’noli munosabatini ko‘rsatib beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqlarning turli tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sharoitda yashashlari natijasida ularning ongi, dunyoqarashi tilda aks etadi. Lekin, texnika taraqqiyoti rivojlanishida boshqa bir davlatda paydo bo‘lgan tushunchalarni anglatuvchi terminlar boshqa bir tilda muqobil variantga ega emasligi ham mumkin. Terminlarning tarjimada berilishidagi universal va differensial xususiyatlardan kelib chiqib unifikatsiyaga (bir xillikka) erishish bo‘yicha quyidagicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tarjima qilingan yuridik terminlarni imkoni boricha ixchamlashtirish kerak, ya'ni ularni faqat bitta so‘z bilan ishlatishimiz lozim: *fors major- favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar.*

2. Me'yoriy hujjatlarni tarjima qilish jarayonida tarjimonlardan soha terminlarini o‘zbek tiliga munosib variantini tanlashini tavsiya qilamiz, bunga erishish qiyin vaziyatlarda terminni o‘zligicha, asl holicha qabul qilib, unga qo‘shimcha izoh berish mumkin.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash joizki, sohalar terminologiyasining matnini orfografik, lug‘aviy – uslubiy mezon talablariga mos holda bayon qilinishiga ham alohida diqqat qaratish kerak. Chunki ommaga taqdim qilinayotgan matnlardagi yuridik so‘z va terminlar ixcham, sodda, tushunarli tarzda ifoda eta olishi kerak. Xalqimiz orasida huquqiy madaniyatni targ‘ib qilish, qonunlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlardan ularni xabardor qilib borish nutqiy madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyatda mas'uliyatli vazifani amalga oshirishni ham taqozo etadi. Bu borada huquqshunoslar ham ma'lum malakaviy va nutqiy ko‘nikmalarni egallashlari lozim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Saidov A., Sarkisyanis G. Yuridik til va huquqshunos nutqi – Toshkent: Adolat, 1994, 3 b.

2. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари: Дарслик. – Т.:Фан. 2005. – Б.9.

3. Turaeva, Umida. Comparative study of Uzbek and English legal terms legal linguistics: historical foundations, basic concepts and aspects. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities 1.1.6 Philological sciences (2021).

4. Hilf, M. Die Auslegung mehrsprachiger Verträge [The interpretation of multilingual treaties]. – Heidelberg, Germany: Springer. 1973.

5. Umida, Turaeva. Characteristics, Methods and Challenges of Translating Law Terminology.JournalNX 6.11: 312-316.

6. G‘afurov, I., Q. Mo‘minov, and N. Qambarov. Tarjima nazariyasi. Toshkent Tafakkur